

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo'ladi



Bugun, 29 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonga amaliy tashrifi bo'lib o'tadi.

Tashrif dasturida Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan ikki tomonlama uchrashuv o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Muzokaralar kun tartibidan O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, ko'p qirrali hamkorlik va mintaqaviy sheriklikni kengaytirish masalalari o'rin olgan.

Davlat rahbarlari Turkmaniston yetakchisining otasi Malikguli Berdimuhamedov xotirasiga bag'ishlangan tadbirlarda ishtirok etadilar.

Manba